

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov

Farg'ona vodiysida o'sadigan *cistanche mongolica* o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash..... 198

Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev

Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi 203

X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova

Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirt gelining bo'kishi 207

M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov

Metanning pirolizlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari 212

M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev

11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri 217

U.Yusupaliyev, T.Amirov

Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari 222

N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,

NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi 229

I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov

Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili 237

F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova

Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi 240

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova

Leptinotarsa decemlineata say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari 245

N.Abdullayeva, M.Davidov

Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari 250

A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov

Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash 254

R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova

Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdorligiga ta'siri 258

G'.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov

Minerallashgan suvlar bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi 262

ILMIY AXBOROT

A.Bababekov

Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil) 268

S.Ruziyeva

O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari 274

O.Abobakirova

Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati 278

D.Nasriyeva

Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida 283

I.Raufov

O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari 287

N.Jumaniyazova

O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili 290

E.Nasrullayev

Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi 293

**MAROSIM IQTISODIYOTI: NIKOH TO'YI MAROSIMLARI MISOLIDA
(IQTISODIY ANTROPOLOGIK TAHLIL)**

**РИТУАЛЬНАЯ ЭКОНОМИКА: НА ПРИМЕРЕ СВАДЕБНЫХ РИТУАЛОВ
(ЭКОНОМИЧЕСКО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)**

**RITUAL ECONOMICS: ON THE EXAMPLE OF WEDDING RITUALS (ECONOMIC -
ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS)**

Bababekov Akbar Davurbaevich¹

¹Bababekov Akbar Davurbaevich

– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, tarix fakulteti, Antropologiya va etnologiya kafedrası mudiri, t.f.f.d (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turonzaminning bir bo'lagi hisoblangan Ustrushonaning ko'hna hududlaridan biri bo'lgan Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari o'zbek va qirg'iz aholisining to'y marosimlari iqtisodiy antropologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, XX asr davomida marosim iqtisodi oila daromadi va jamiyat ijtimoiy muhitga bog'liq ekanligi ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье с хозяйственно-антропологической точки зрения анализируются свадебные обряды узбекских и кыргызских жителей Зааминского и Бакмальского районов Джизакской области, одного из старых районов Уструшены, считающегося частью Туронзamina. Также выявлено, в течение XX века ритуальная экономика зависела от доходов семьи и социальной среды общины.

Abstract

This article analyzes the wedding ceremonies of the Uzbek and Kyrgyz residents of the Zaamin and Bakhmal districts of the Jizzakh region, one of the old districts of Ustrushena, considered part of Turonzamin, from an economic and anthropological point of view. It was also revealed that during the 20th century the ritual economy depended on the income of the family and the social environment of the community.

Kalit so'zlar: marosim iqtisodi, Zomin, Baxmal, to'y, nikoh, sovchilik, an'ana, urf-odat, qalin, oila iqtisodi.

Ключевые слова: Ритуальная экономика, Заамин, Бакмал, узбекская и кыргызская свадьба, брак, сватовство, традиция, калин, семейное экономика.

Key words: Ritual economics, Zaamin, Bakhmal, wedding, marriage, matchmaking, tradition, kalin, family economics.

KIRISH.

Tug'ilish, to'y va o'lim bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar – bu nainki tafakkurga yo'naltirilgan, balki marosim iqtisodi bilan bog'liq bo'lib, ularning ko'plari kelib chiqish asoslariga ko'ra iqtisodiy, ijtimoiy va diniy qarashlarga ham borib taqaladi. Shu boisdan, marosimlar orqali kishilar ilohiy qudrat va inson o'rtasida aloqa o'rnatish va hamda tabiiy ofatlardan saqlanish, o'zaro iqtisodiy yordam berish, birdam va yakdil bo'lishga chorlash, yovuz kuchlardan himoyalalanish, baxt-omadni chaqirishga harakat qilganlar va undan ham iqtisodiy, ham ma'naviy ozuqa olib, ruhiy taskin topganlar. Shu bilan marosimlar ko'ngil ochish hamda kayfiyatni ko'tarish bilan birga iqtisodiy yengillik vazifasini ham bajargan. Bundan tashqari, marosim iqtisodi insonlarni o'zaro birlashtirish, ularni bir jamoa bo'lib yashash, iqtisodiy ko'mak hamda yakdillik va birdamlikni ta'minlash kabi jamiyat hayotida o'ziga xos muhim funksiyalarni ham bajarilishiga xizmat qilgan.

Turonzaminning bir bo'lagi hisoblangan Ustrushonaning ko'hna hududlaridan biri bo'lgan qadimiy o'tmishga ega Sangzor-Zomin mintaqasi to'y marosimlari iqtisodiy antropologik jihatdan kam o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sangzor-Zomin mintaqasi aholisining turmush tarzi, an'analari, urf-odat va marosimlari, umuman marosim iqtisodiga doir dastlabki ma'lumotlar, ilmiy kuzatishlar Rossiya imperiyasining davriy nashrlarida ham uchraydi. Jumladan, "Asxabat" gazetasi va boshqa rasmiy to'plamlari, "Samarqand viloyat ma'lumotnoma kitobchasi"da Zarafshon vohasi, shu jumladan Sangzor-Zomin mintaqasining ma'muriy bo'linishi, tabiiy sharoiti, siyosiy va aholining iqtisodiy ahvoriga oid

ma'lumotlar, aholi sonining o'sishi, milliy tarkibi, volost, qishloq jamoalari va qishloqlar aholisining etnik tarkibi, dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va xo'jalikning boshqa turlari, mehnat qurollari, savdo-sotiq, oilaviy – maishiy turmushi hamda urf-odatlar haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan ushbu to'plamlarda Rossiya imperiyasi ma'murlari, olimlar, tadqiqotchilarning maqolalari va hisobotlari berib borilgan. Marosim iqtisodiga doir ma'lumotlar 1906-yil nashr etilgan "Samarqand viloyat ma'lumotnoma kitobchasi"ning 8-sonida N.S.Lykoshin maqolasida o'z ifodasini topgan. 1907-yildagi to'qqizinchi sonida Jizzax va Xo'jand uездlaridagi asalarichilik (I.A.Brezitskiy, Ya.A.Moiseev), 1912-yil o'ninchi sonida Sangzor – Zomin mintaqasi aholisining iqtisodiy turmushi (N.M.Virskiy) va boshqa masalalarga bag'ishlangan ko'plab maqolalar chop etilgan.

Mavzuga doir tarixiy, etnografik va etnologik ishlarda aholining milliy va etnik tarkibi, an'anaviy xo'jalik xususiyatlari, qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmush farovonligiga to'xtalib o'tilgan. Xususan, N.A.Kislyakov, O.A.Suxareva, M.A.Bikjanova, A.F.Monogarova, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov, N.P.Lobachyova, T.X.Tashbayeva va M.D.Savurov, X.Toshevlarning etnik tarkib, an'anaviy xo'jalik, oila va oilaviy marosimlar bag'ishlangan tadqiqotlarda aksari qishloq oilasi o'rganilgan bo'lib, tog'li hududlardagi oila va marosim iqtisodi etnograflar nazaridan chetda qolgan. Shunga qaramay, bu davrdagi tadqiqotlar kuzatuvga asoslangan keng ko'lamdagi va noyob ma'lumotlarning mavjudligi bilan diqqatga sazovor bo'lib, jamoa xo'jaliklari – kolxozning tashkil topishi munosabati bilan ulardagi turmush tarzi va oila munosabatlarini o'rganishda ular o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu tadqiqotchilarning xizmatlari ularni, oila maishiy turmushi, marosimlarning an'anaviy shakllarini birinchilardan bo'lib ko'rsatib beribgina qolmasdan, bu muammolarni o'rganish usullarini ham yaratganlaridir.

Mazkur ilmiy maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, geografik determinizm, statistik qiyoslash, fanlararo yondashuv, muammoviy-xronologik tahlil va ob'ektivlik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

To'y marosimlari iqtisodi XX asrda ro'y bergan turli siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar natijasida bir qator o'zgarishlarni o'z boshidan kechirdi. Jumladan, bu o'zgarishlar tog'li Sangzor – Zomin qishloqlari aholisi orasida "eskicha to'y", "yangicha to'y", "qizil to'y", "komsomolcha to'y" kabi yangi tushunchalarni paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qizil to'y, komsomol to'y – eski urf-odatlar bajarilmaydigan, isloh etilgan yangicha nikoh to'y bo'lib, qizil to'y O'rta Osiyoda ilk bor 1920-yillardan boshlab paydo bo'ldi[1. 48]. «Qizil to'y» bilan «komsomol to'y»ning farqi shundaki, - deya eslaydi Novqa qishlog'lik axborotchi Asqarov Tursunboy, «qizil to'y»da an'anaviy urf-odatlar qisqartirilgan shaklda ozgina bo'lsa ham bajarilsada, «komsomol to'y»larida ular umuman bajirilmaydi va bunday to'ylar, albatta, madaniyat uylarida, klublarda, «baxt uylarida», mahalla komitetlarida o'tkazilardi[2]. XX asrning 60-yillaridan, avvalo «qizil to'y», keyinroq «komsomolcha to'y» deb nomlangan «yangicha» to'ylar keng nishonlana boshladi[3. 98]. So'ngra bu to'ylar «basm» deb atala boshlandi. Bunday to'ylarda spirtli ichimliklar iste'mol qilinardi, hatto kelin-kuyovning «gorka» qilish odati ham uchrab turardi[4. 2]. Bunga «Yor-yor» kinofilmidagi «qizil to'y» sahnasi yaqqol misol bo'la oladi.

Jizzax viloyati, Zomin va Baxmal tumanlarining o'zbek va qirg'izlar nikoh to'ylarini tashkiliy qismidan boshlab to nihoyasiga yetguniga qadar uch bosqichga bo'lib tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bular: to'ygacha bo'ladigan urf-odat, an'ana va marosimlar; to'y paytida o'tkaziladigan an'ana va marosimlar; to'ydin keyin o'tkaziladigan marosimlardir.

Tadqiqot hududida istiqomat qiluvchi o'zbek va qirg'izlarning nikoh to'yigacha bo'lgan bosqichi o'zining ko'p qirrali va son-sanoqsiz rasm-rusumlari, urf-odat, taomil va marosimlariga boy. Uning o'ziga xos va davriga mos udumlari nikoh to'yining o'ta murakkabligidan, xalqonaligidan darak beradi. Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish kengaya borgan sari, to'y-tantanalarda har xil an'ana va marosimlar vujudga keladi. Shuni alohida qayd qilmoq kerakki, - deya yozadi X.Ismoilov, - milliy an'analar va marosimlar har bir xalqning tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlari natijasi o'laroq, yashash sharoiti, muhiti va birgalikda ishlash-yashashlari natijasida vujudga keladi[3. 99].

Misol tariqasida, Jizzax viloyati, Zomin, Baxmal tumanlari qishloqlarining o'zbek va qirg'iz aholisi orasidagi nikoh to'yigacha bo'lgan sovchilik udumini keltirib o'tish mumkin.

XX asr boshlarida O'zbekistonning aksariyat tog'li tumanlari, shu jumladan, Jizzax viloyati, Zomin, Baxmal tumanlari qishloqlarida quda bo'ladigan tomonlar ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlar

o'rtasida qiz olish yoki qiz berishiga qarab sovchilikka borishgan, shuningdek, bir qishloq yoki mahallada yashab turgan qo'ni-qo'shnilar orasida qiz olib, o'g'il uylantirish rasm bo'lgan bo'lsa, 40-yillarga kelib, ya'ni Ulug' Vatan urushi va undan keyingi yillarda mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy qiyinchiliklar, jumladan, ocharchilik, yetishmovchilik oqibatida qizlarini boshqa qishloqlarga uzatish, ayniqsa tuman markazlari va shaharlarda o'g'il uylantirishda boshqa millat vakillaridan kelin tanlash (rus, tatar, ukrain va boshqa) keng an'ana tusiga kiradi. Bunday yoshlar bir-birlarini ko'rib, uchrashib turmush qursalar, ulardan farqli holda, 30-40 yillar va 50-60 yillarning boshlarida ham aksariyat ko'pchilik qiz bilan yigit bir-birini ko'rmasdan, ota-ona roziligi bilan turmush qurishgan[5].

XX asrning 60-70 yillaridan boshlab to hozirgi kungacha yoshlar turli shart-sharoitlarda kimdir o'qish (7 %), ish joyida (15%) yoki o'zi, kimdir biron-bir do'sti (1%), qarindoshi yo sovchilar yordamida, kimdir ko'chada (6%), jamoatchilik joylarida, transportda, turli marosimlar, to'ylar, kechalar, o'tirishlar (7%) va h.k shart-sharoitlarga ko'ra tanishib turmush qurishi holatlari kuzatila boshlandi[6]. Ammo tog'li tumanlar aholisi etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yosh oilaning yuzaga kelish shartlari orasida keng tarqalganlaridan biri sovchilik orqali turmush qurish (42 %) ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini qayd etish lozim.

XX asrning 60-70 yillariga kelib, 10 yillik maktablarni joriy etilishi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kolxoz va savxozlarda yigit va qizlarning birga ishlashi, qishloq yoshlarining yirik shaharlarda joylashgan turli oliygoh va texnikumlarga o'qishga kirishi natijasida xalq orasida "yaxshi ko'rishib turmush qurish" iborasini paydo bo'lishiga va internatsional yosh oilalarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi[7. 52]. 1979 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda milliy-aralash oilalar 10,5%, Jizzax viloyati shahar aholisi orasida 17,3 %, qishloqda – 4,7% tashkil etgan[8, 99]. Ko'rib turganimizdek, tafovut juda katta bo'lib, mazkur farq shahar va qishloq aholisi orasida rus tilini bilish darajasidagi tafovut, milliy turmush an'analari darajasi, dinga munosabati, ta'lim darajasidagi nomuvofiqliklar bilan izohlanadi[9. 22]. XX asrning oxirlaridan dala ma'lumotlari ham turli millat vakillari o'rtasidagi nikohlar soni kamayib borganligini tasdiqlaydi.

XX asr boshlaridan to o'rtalariga qadar to'y xarajatlari ichida qalin alohida o'rin tutganligini qayd etish lozim. XX asr boshlarida, butun Zarafshon vohasida bo'lgani singari, O'zbekistonning tog'li hudud qishloqlarida ham, qalin asosan, pul va bir-ikki bosh qoramol (chorva) bilan to'langan. Negaki, dastlab ko'chib yuruvchi o'zbek va qirg'iz etnik qatlamlari pulga ehtiyoj sezmagani, ular o'troqlasha borgan sari pul muomalasini ham o'zlashtira borganlar[10,53]. Zarafshon vohasining Zomin, Baxmal tumanlarida 1917 – 1925 yillarda qalin oilaning moddiy ahvolidan kelib chiqib to'langan[11, 228]. Boy xonadonlarga 2 bosh qo'y yoki bir bosh qoramol, g'alla, pul va boshqalardan iborat bo'lgan qalinni to'lay olgan. Ammo Sangzor-Zomin mintaqasining hamma joylarida ham qalin bir xilda to'langan deb bo'lmaydi. Qalin puli hamma vaqt ham bir xil hajmda bo'lmagan, aksincha, davrning sharoitiga mos ravishda bozordagi narx-navo va asosan qoramol yoki qo'yning puli, go'shtning bozordagi bahosiga qarab o'sib borgan.

O'tmishda, Zomin tumanining ba'zi cho'l oldi Uchtom, Oqbuloq, Go'rtepa kabi qishloqlarida qalin pul yoki don bilan to'lansa, tog'li hududlaridagi Sarikamar, Qoramozor, Muzbuloq, Ovay, Shaybek qishloqlari qirg'izlarida xilma-xil buyum, yirik va mayda tuyuqli chorva bilan berilgan. Baxmal va Zomin qirg'izlari nikoh to'yi qalin to'lab bo'lingan so'ng (ko'p hollarda ikki, uch yildan keyin) nishonlangan. Axborotchi Baxmal qishloq fuqarolar yig'ini raisi Xidirov Joniql kolxozlashtirish davrigacha qirg'izlar orasida boy xonadonlar qalin uchun (tuya yoki ot, ikki juft ishchi ho'kiz) va 20-30 bosh qo'y berganligini ta'kidlaydi. Hatto eng kambag'al qirg'iz qalin sifatida 10-15 bosh (ro'yxat otdan boshlanuvchi) chorva qo'y bergan[12]. Sangzor daryosining yuqori oqimidagi Solin, Tangatopdi kabi o'zbek qishloqlarida qo'ylarning soni 8 – 10 tagacha yetgan. Umuman, qalinning katta yoki kichik miqdorda bo'lishi kuyov tomonning iqtisodiy barqarorligiga bog'liq bo'lgan[13. 37, 38]. Chorva bilan qalin to'lash qozoqlarda ham keng tarqalgan.[14. 69, 77, 94,105]. Qalin evaziga kelin tomonga keltirilgan sigirni qizning otasi bir bor yo'qlov qilganidan so'ng *enchi* sifatida qaytargan. Shu bilan birga bir qishloqda yashagan qarindoshlar quda bo'lishsa, kuyov tomon kelin tomonning to'y uchun bo'ladigan xarajatlarini deyarli hammasini o'z zimmasiga olgan. Vaqti-vaqti bilan kelin tomonga to'y o'tguncha sovg'a-salom yuborib turilgan. Hatto kelin uchun tayyorlanadigan sepga ham xarajatlar qilib, qizning ota-onasiga yaqindan yordam bergan[13. 38,39].

XX asrning 50-yillaridan boshlab, kelin uchun berilgan qalinning bir qismini nikoh to'yini o'tkazishga sarflana boshlashi, ya'ni kuyov tomonning kelin tomonga nikoh to'y xarajatlariga

yordam hissasi sifatida berila boshlangan. Jizzax viloyati, Zomin tumani, Uvol qishlog'i o'qituvchi Xolmat Nuraliev (1955 yilda tug'ilgan)ning eslashicha, og'ir iqtisodiy ahvol tufayli bo'lib, mazkur to'y xarajatlari uchun kuyovning barcha yaqin qarindoshlari yordam bergan. To'y xarajatlari bir oilaning iqtisodiy imkoniyati doirasidan katta bo'lgani bois, kimdir qo'y, kimdir qoramol va boshqa iqtisodiy yordamini "to'yyona" sifatida berishi to'y egasiga ancha katta iqtisodiy yordam bo'lgan. Mazkur "to'yyona" berish odati hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda[15].

Sovet hukumati o'rnatilgach, to so'nggi yillargacha qiz uzatish bilan bog'liq bo'lgan qalin berish odati o'zbek xalqi tarixi, urf-odatlarini kamsituvchilar uchun katta bahona bo'lib keldi. O'zbeklarda hanuzgacha qizlarni mol, buyum yoki qul sifatida sotish qoldiqlari uchrab turadi, o'tmishda esa bu odat juda rivojlangan edi, deganlar uchun ham asosiy dastak qalin masalasi bo'ldi[16. 215]. Qalinga qarshi kurash hyech qanday o'zining natijasini bermadi, desak xato bo'ladi. Sovet davrida paydo bo'lgan «qizil to'y», «komsomol to'y» kabi yangi to'ylarda qalin yoki sut puli ko'p hollarda berilmagan[15]. Ammo, shu bilan birgalikda, aholining ichida uni pinhona berish ham davom etgan. Qoramozor qishlog'i keksalarining eslashicha, XX asrning 60-70 yillarida qirg'izlarda qalin to'lab bo'lingandan so'ng, to'y yuborilgan, unga beshta qo'y, bitta qoramol, besh qop un, bir flyaga o'simlik yog'i, bir flyaga kuydirilgan saryog', 15 (katta) quti konfet, 20 kiyimlik beqasam, 10 kiyimlik krepdeshin, 60 bo'lak mato (kelgan mehmonlarga belbog', ro'molcha) parchasi va h.k. berilgan[17]. Bu odat Sangzor-Zomin qirg'izlarida "sıy", oltoyliklarda "oltoy kiji", telengitlarda "belek" deb nomlangan. Qirg'izlarda XX asrning 50-yillariga qadar kelin sepi ("juk") ichida o'tov, kigiz, qo'lda to'qilgan qoqma gilam bo'lishi shart bo'lgan bo'lsa, 70-80 yillarga kelin sepida nikoh va kundalik kiyimlari, zargarlik taqinchoqlaridan tashqari, zamonaviy davrga xos bo'lgan muzlatgich, kir yuvish mashinasi, televizor, shifoner, bufet, ba'zan mebel garnitur (iqtisodiy imkoniyatiga qarab) o'rin ola boshladi.

Aholining iqtisodiy farovonligini oshib borishini kelin uchun qilinadigan seplarda ham kuzatish mumkin. Masalan, 1952-yilda tug'ilgan oqqo'rg'onlik Oydin Abdurashidovani ta'kidlashicha, sep uchun XX asrning 70-yillarida nisbatan boshqalarga qaraganda o'ziga to'q bo'lgan (rais, hisobchi, tabelchi) oilalar qizlari uchun 20 dona ko'ylak, 1 dona shkaf, 3x2 hajmdagi gilam, 1 dona zulcha (zulvaraq), bir dona olacha bergan bo'lsa, kambag'allaroq oilalar esa bitta zulcha, bir dona olacha bergan. Paxta bo'lmaganligi sababli paxtali ko'rpa va yostiqlar qilinmagan hamda echki terisidan tayrlangan po'staklar to'shanchi vazifasini bajargan[18].

Tog' va tog'oldi hududlarida to'y va boshqa oilaviy marosimlar odatda kech kuzda o'tkazilgan bo'lib, doimo qishloq, mahalla-kuy va qarindosh-urug'larning ishtirokida, qishloq oqsoqollari va to'y boshilar boshchiligidagi nishonlangan. Etnograf olim B.X.Karmyshevaning fikricha, bu xo'jalik-iqtisodiy sabablar (chorva semirgan, xo'jalikdagi yumushlar kamaygan) bilan ham bog'liq bo'lgan[19. 198]. Olib borilgan dala tadqiqotlari davomida keksa yoshli axborotchilar, to'ylarni kech kuzda qilinishini quyidagi sabablar bilan izohlashganligi diqqatga sazovor. Masalan, Zomin tumani, Sarikamar qishlog'lik 1926 yilda tug'ilgan Ayoqul hoji Qo'ldoshev, inson tabiat, jonzotlarning bir bo'lagi sifatida yilning iliq (bahor, kuz) fasllarida avlodning paydo bo'lib, unib-o'sib olishiga ulgurishi zarurligi, aholining iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi bilan izohlaydi.

XX asrning 50-yillargacha urush va undan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli qalin o'rniga 1 yoki 2 pud g'alla yoki arpa, bir kiyimlik mato berib kelin qilishgan, uzoqroq qishloqlarga qiz uzatishda nisbatan boy va o'rta hol oilalar otdan, kambag'al oilalar esa eshakdan foydalangan. 1960 yilda birinchi "Gaz-51" rusumli yuk mashinasi tuman markazi O'smatga Jomboydan olib kelingan so'ng, 1965-70 yillardan boshlab kelinlar sepi (juk) shu yuk mashinalarida olib kelina boshlagan[5].

XX asrning 1970-yillardan aholining hayoti yaxshilanib, farovonligi oshib borganligini to'ylarda mehmonlarga sarpo berish boshlanganligida ham kuzatish mumkin. Masalan, o'sha vaqtlarda Oqqo'rg'on qishlog'ida yashovchi aholi orasida to'y egasiga taqdim qilingan to'yona uchun g'unajin (tana) olib kelganga 2 metr baxmal mato, qo'yga chiy baxmal, echki oborganga las matosi sarpo sifatida berilgan[5].

XX asrning 50-60 yillariga qadar bazm dasturxoni "qur" (yerga olacha, kigiz to'shab, ko'rpa va dasturxon yozilgan) deb nomlangan dasturhonga meva –cheva, qan-qurslarni sochib qo'yib o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik XX asrning 60-70 yillaridan nikoh to'yi bazmlarini taxtadan yasalgan uzun stol-stullarda zamonaviy ro'zg'or buyumlari (likopcha, qoshiq va boshqa), salqin ichimlik va spirtli ichimliklar bilan o'tkazish urfga aylana boshladi. Zomin tumani markazi va uning atrofidagi Birlashgan, Qiziloy, Cholqishloq aholisi nikoh to'yi bazmi 1965-70 yillarda taxtadan yasalgan uzun

stol-stul P harfi shaklida terib qo'yilib, tuman yoki qishloqda nomi chiqqan xonanda ishtirokida bitta rubob, doira bilan to'y o'tkazila boshlangan. Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlardan qo'shiqchi san'atkorlar chaqirish ham shu yillardan boshlangan.

O'zbekistonning tog'li tumanlari qishloqlarida bog'dorchilik va chorvachilikning rivojlanishi natijasida 1996-yildan boshlab aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan pul daromadlari o'sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi. Keyingi yillar davomida aholi real daromadlarining o'sishi 16,2 foiz atrofida bo'ldi. Aholining tadbirkorlik faoliyatidan, mulki va mustaqil ravishda bandlikdan olinadigan daromadlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Tahlil davrida dehqon xo'jaliklari va tadbirkorlik faoliyatidan olingan umumiy daromad salmog'i 26,9 foizdan 36,4 foizga o'sdi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari mahsulotlar (ayniqsa olma, nok, yong'og, terak) tobora ko'proq tovar xarakteriga ega bo'lib bormoqda. U natural iste'mol manbasidan ko'ra ko'proq aholining pul daromadlari o'sishi omiliga aylanmoqda. Bu esa dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi o'sayotganidan dalolat beradi. Ulardan tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va pul daromadlarini shakllantirishda keng miqyosda va samarali foydalanilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tog'li tumanlarda aholi jon boshiga bir yilda non va non mahsulotlari iste'moli 1990-yildagi 170 kilogrammdan 2009-yilda 161 kg, 2010-yilda 160 kilogrammga kamaygan. Go'sht va go'sht mahsulotlari aholi jon boshiga iste'mol qilish yiliga 1990 yilda 32 kg, 2000-yilda 34 kg, 2010-yilda esa 36 kg ni tashkil etdi. 2010-yilda 1990 yilga nisbatan bir yilda aholi jon boshiga sut mahsulotlari iste'moli 4,1%ga, tuxum 11,7% , sabzavot, poliz mahsulotlari iste'moli 2,2 barobarga, kartoshka iste'moli 1,5 barobarga, meva, uzum iste'moli 3,6 barobarga o'sgan.

1990-2010 yillarda har 100 uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar soni 90 tadan 132 taga, sovutgichlar soni 80 dan 95 taga, konditsionerlar 9 tadan 18,5 tagacha, elektrochangyutgichlar 29 tadan 37 taga o'sdi. Shaxsiy kompyuterlar 2010-yilda 12 tagacha, DVD proigryvatellar soni 2000 yilda 23 tadan 55 tagacha o'sdi. Mobil telefonlar ilgari yo'q edi. Endilikda deyarli har bir xonadonda kamida bittadan mobil uyali telefon mavjud. Har 100 uy xo'jaligiga 1990 yilda 19,2 ta avtomobil to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 27,1 taga yetdi[5].

Qishloq joylarda kam ta'minlanganlikka moyillik ehtimoli yuqori bo'lgan ko'p farzandli uy xo'jaliklarida (umumiy aholining 0,81 %) va kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga tomorqa yer uchastkalarining ajratilishi, kichik biznes yuritish uchun sharoitlarning yaratila boshlanishi aholi iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qila boshladi.

XULOSA

Shunday qilib, mustaqillik yillariga kelib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish aholi real daromadlari va turmush darajasini o'sishini ta'minladi. Aholi turumush darajasi va daromadlarining o'sishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining davlat tomonidan rag'batlantirilishi va qo'llab-quvvatlanishi muhim omil bo'lib, kambag'allik va qashshoqlikning oldini olishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лобачёва Н.П. Формирование новой обрядности узбеков. – М.: Наука, 1975. – С. 48. (Lobachyova N.P. Formation of a new Uzbek order. - M.: Nauka, 1975. – P. 48)
2. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Новқа қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Bakhmal district, Nauka village. 2019)
3. Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Т.: 1992. – Б. 98, 99. (Ismoilov H. Uzbek weddings. - Tashkent: Uzbekistan, 1992. – P. 98, 99)
4. Насруллаева Ҳ. Тўйга нега борасиз? // Хуррият. 1998, 4 ноябр. ()
5. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Оққўрғон қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Bakhmal district, Akkurgan village. 2019)
6. Дала ёзувлари. Зомин шаҳри. 2019 йил. (Field records. Zaamin district, Zamin city. 2019)
7. Бижанова М. А. Семья в колхозах Узбекистана. – Т.: Изд-во Акад. Наук УзССР, 1959. – С. 52. (Bikjanova M.A. Family in the collective farms of Uzbekistan. - T.: Acad. Nauk, UzSSR, 1959. –P. 52)
8. Населения СССР (спрвочник). – М., 1983. – С. 99. (табл. 43.). (Population of the USSR (reference book). – M. 1983. – P. 99)
9. Дробижеева Л. М., Сусколов А. А. Межэтнические отношения и этнокультурные процессы (по материалам этносоциологических исследований в СССР) // СЭ. 1981. № 3. – С. 22. (Drobijeva L. M., Suskolov A. A. Interethnic relations and ethno-cultural processes (based on ethno-sociological research in the USSR) // SE. 1981. – P.22)

-
10. Мусақулов А. Қалин // Мулоқот. 1992, № 11–12, – Б. 53. (Musakulov A. Thick // Communication. 1992, №. 11–12, - P. 53)
11. Моногарова А.Ф. Семья и семейный быт / Этнографические очерки узбекского сельского населения. М., 1969, – С. 228. (Monogarova A.F. Family and family life / Ethnographic sketches of the Uzbek rural population. M., 1969, –P. 228)
12. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Обай қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Bakhmal district, Obay village. 2019)
13. Соатова С.А. Юқори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XIX аср охири – XX аср боши): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т., 1999, – Б. 37 – 38, 39. (Soatova S.A. Wedding ceremonies of the Uzbeks of the Upper Zarafshan oasis (late XIX - early XX centuries): Thesis of cand. diss. –Т., 1999, –P. 37 - 38.)
14. Қаранг: Аргынбаев Х.А. Свадьба и свадебные обряды казахов в прошлом и настоящем // СЭ. 1974, № 6, – С. 69–77; Аргынбаев Х.А. О некоторых пережиточных формах брака у казахов / Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана (отв. ред.Г.П. Снесарев). – М., 1978, – С. 94–105. (Argynbaev Kh.A. Wedding and wedding ceremonies of Kazakhs in the past and present // SE . 1974, No. 6 , –P. 69–77; Argynbaev Kh.A. On some s the surviving forms of marriage among Kazakhs / family and family rituals of the peoples among Asia and Kazakhstan (Tob. Red.G.P. Snesarev) . –М., 1978, –P. 94–105.)
15. Дала ёзувлари. Зомин тумани, Увол қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Zaamin district, Uvol village. 2019)
16. Лобачёва Н.П. Брак / Семейный быт народов СССР (отв. ред. Т.А. Жданко). – М., 1990; Народы Средней Азии и Казахстана. – М., 1962. (Lobacheva N.P. Marriage / Family life of the peoples of the USSR (responsible editor T.A. Zhdanko). - M., 1990; Peoples of Central Asia and Kazakhstan. - M., 1962.)
17. Дала ёзувлари. Зомин тумани, Қорамозор қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Zaamin district, Qaramazar village. 2019)
18. Дала ёзувлари. Бахмал тумани, Қирққишлоқ қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Bakhmal district, Kirkishlak village. 2019)
19. Кармышева Б.Х. Каратегинские киргизы. – М.: Наука, 2009. – С. 198. (Karmysheva B.H. Kirgizs from Karategin. –М.: Наука, 2009. –P. 198)
20. Дала ёзувлари. Зомин тумани, Сарикамар қишлоғи. 2019 йил. (Field records. Zaamin district, Sarikamar village. 2019)